



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2022- YIL YANVAR-NOYABR (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 69-211-72-00




www.namstat.uz

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



2022- yil yanvar-noyabr oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 15 867,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,7 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,9 % ni tashkil etdi.



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati 120,0 % ga o'sishi hisoblanadi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 77,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat


2022- yil yanvar-noyabr oylarida



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 839,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,9 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 % ni (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 1,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,6 % (6,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 12,7 % (13,3 %) va quyi texnologiyalisi – 77,6 % (79,0 %) ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-noyabr oylarida

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 37,9 % (2021-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 20,2 % (2021-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,3 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,0 % (2021-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 127,3 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,8 % (2021-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 71,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,9 % (2021-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 191,3 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2022- yil yanvar-noyabr oylarida




2022-yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 103,7 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2021-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 9,6 % ga kamaygan), 28,9 ming tonna paxta tolasi (14,2 % kamaygan), 10,7 ming. tonna yog' mahsulotlari (12,3 % ga kamaygan) hamda 48,8 ming tonna paxta chigiti (9,3 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	57,3	50,9	-6,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	114,7	103,7	-11,0
Paxta tolasi, ming tonna	33,7	28,9	- 4,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	12,2	10,7	- 1,5

Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 2,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 92,6 % bo'lgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,2 % ga pasayib, fizik hajm indeksi esa, 35,7 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 134,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 496,1 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 4,0 % ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 572,2 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 254,3 mlrd so'mni, joriy 2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 717,2 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 463,3 mlrd so'mga ortgan.



2022- yil yanvar-noyabr oylarida

Ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 518,4 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 493,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 25,3 mlrd. so'mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,1 %ni tashkil etdi.

2021- yil

113,5 %

2022- yil

100,5 %

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 125,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 106,9 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 4 315,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2021- yil

125,3 %

2022- yil

106,9 %

Kiyim ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 9,0 % ni, yani jami 1 130,7 mlrd so'mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 9,4 % ni tashkil etib, 1 496,3 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 365,6 mlrd. so'mga oshgan.

2021- yil

119,4 %

2022- yil

115,5 %

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 191,0 mlrd. so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha 522,5 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, tashkil etdi.

2021-yil

114,3 %

2022-yil

245,2 %

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yil

78,6 %

2022-yil

91,0 %

2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 11,1 mlrd. so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,6 mlrd. so'mga ko'payib, 11,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, yani 193,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 60,6 mlrd. so'mga ko'paygan va 254,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2021-yil

114,3 %

2022-yil


119,0 %

2022- yil yanvar-noyabr oylarida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 798,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,0 % ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 537,0 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	6 098,5	6 004,7	-93,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	71,3	58,8	- 12,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 152,1 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	74,1	87,7	13,6
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	20,9	20,1	-0,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 13,6 mlrd. so'm yoki 18,3 % ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,8 mlrd. so'mga kamaygan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 940,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish 115,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 56,3 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



106,6 %

2022- yil
yanvar-noyabr



113,3 %

2021- yil
yanvar-noyabr



Nooziq-ovqat mahsulotlar



119,8 %

2022- yil
yanvar-noyabr



119,4 %


2021- yil
yanvar-noyabr





Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 40,9 % ni, shuningdek, Chust tumani 11,0 % ni, To'raqo'rg'on tumani 8,9 % ni, Namangan tumani 8,2 % ni Kosonsoy tumani 7,8 % ni, tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 3 655,5 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 40,9 %, Chust tumanida 981,8 mlrd. so'm bo'lib, 11,0% ni shuningdek, To'raqo'rg'on tumanida 797,1 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 8,9 %ni tashkil etdi.



yanvar-noyabr
mlrd.so'm





Jami sanoat ishlab chiqarishi
hajmida iste'mol mahsulot-
larining ulushi





Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 39,2% shuningdek, Chust tumani 14,6 %, To'raqo'rg'on tumani 12,.0% ni tashkil etadi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




o'sish sur'ati
mlrd. so'm

2022-yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 412,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 21,5 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.





Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2022- yil yanvar-noyabr)



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 44,4 % ni, shuningdek, Namangan tumani 9,9% ni, Uchqo'rg'on tumani esa 9,8 % ni tashkil etdi.

yanvar-noyabr
mlrd.so'm



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-noyabr
o'sish sur'ati



Namangan sh.

Mingbuloq

Kosonsoy

Namangan

Norin

Pop

To'raqo'rg'on


Uychi

Uchqo'rg'on

Chortoq

Chust

Yangiqo'rg'on




 o'sish sur'ati
 mlrd. so'm



Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 37,8 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 18,7 %ni, Chust tumani 8,6 %ni, Namangan tumani 6,0 % tashkil etdi.

Namangan viloyati



yanvar-noyabr o'sish sur'ati




o'sish sur'ati mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (12 588,2 ming so'm), Namangan shahrida (8 962,9 ming so'm), Namangan shahrida (8 962,9 ming so'm), tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Namangan viloyati



 o'sish sur'ati
 ming. so'm

Namangan viloyati




yanvar-noyabr o'sish sur'ati




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 7 128,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,9 % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati



yanvar-noyabr o'sish sur'ati




Namangan sh.		53,2	3 181,6
Mingbuloq		48,6	338,4
Kosonsoy		37,0	310,7
Namangan		67,1	635,0
Norin		50,3	107,3
Pop		61,3	284,7
To'raqo'rg'on		10,8	284,7
Uychi		72,3	642,1
Uchqo'rg'on		18,2	169,1
Chortoq		100,0	320,2
Chust		41,2	563,5
Yangiqo'rg'on		100,0	256,6

jamidagi ulushi mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Namangan viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 025,3 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida – 5 477,0 ming so'mni, Chust tumanida 3 552,6 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 3 381,5 so'mni tashkil etdi.



o'sish sur'ati ming. so'm

Namangan viloyati

2 321,0 ming.so'm 2021-yil

3 025,3 ming.so'm 2022-yil



yanvar-noyabr o'sish sur'ati

114,8 % 2021-yil

112,8 % 2022-yil

Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7 776 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 952 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,0 % i) Namangan shahriga, 599 tasi (7,7 %) Kosonsoy tumaniga, 591 tasi (7,6 %) Uychi tumaniga, 550 tasi (7,1 %) Chust tumaniga, 498 tasi (6,4 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

1 566 / **dona**

2021- yil yanvar-noyabr

1 332 / **dona**

2022- yil yanvar-noyabr



Jami faoliyat yuritayotgan

7 018 / **dona**

2021- yil yanvar-noyabr

7 776 / **dona**

2022- yil yanvar-noyabr

Namangan sh.	516	2 952
Mingbuloq	31	198
Kosonsoy	80	599
Namangan	94	550
Norin	60	393
Pop	57	304
To'raqo'rg'on	65	498
Uychi	95	591
Uchqo'rg'on	138	427
Chortoq	62	339
Chust	61	556
Yangiqo'rg'on	73	369

yangi tashkil etilgan



faoliyat yuritayotgan

